



## Jamiyatni rivojlantirish uchun empirik tadqiqot va uning metodlari

Qo'qon universiteti Iqtisodiyot va ta'lif fakulteti  
Ta'lif kafedrasi o'qituvchisi Muhammadjonov Jasurbek

Qo'qon universiteti talabalari

Muxtorov Alijon

Mo'ydinov Hayitali

Aliyeva Iqlima

Tel:+998932215979

Elektron pochta manzilimiz: [alimuxtorov03@gmail.com](mailto:alimuxtorov03@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolamizda biz jamiyatni rivojlantirish uchun kerak bo'ladigan anniq sotsiologik metodlar yo'llari bilan yaqindan tushuntirib berdim va maqolni mazmuni juda ham boy bo'lib endi bu maqolada har bir metod bo'yicha yozib chiqganman. Siz bu maqolani o'qib bo'lgach albatta o'z hududingizda turli tajribalar olib borishingiz va aholi fikri bilan yaqindan tanishib chiqishingiz mungkin

**Kalit so'zlar:** metod, ijtimoiy, jamiyat, sotsial, tadqiqot, konsepsiya, mehnat Faraz.

Ijtimoiy tadqiqodlar metodologiyasi va metodikalari haqida.

Ijtimoiy ya'ni sotsiologik tadqiqotlar sotsial hodisalar va jarayonlarning haqiqiy holati to'g'risida axborotlar olish kerak bo'lganida o'tkaziladi. Bunaqa hodisalar va jarayonlarning eng asosiyлари quyidagilaridir: Boshqaruv va lohiyalarni qarorlarni asoslash; Sotsial holatlarda pragnozlarni shakllantirish: Mavjud muammolar va ziddiyatlarni barham toptirish ular yechimiga doir taklif va tafsiyalar berish.

Aniq sotsiologik tadqiqotlar sotsiologik tafakkurlashning asosiy tarkibiy qismidir. Aniq sotsiologik tadqiqotlar- bu mavjud nazariy va sotsial muammolar yechimlarini izlab toppish uchun tadqiq etilayotagn obyektda

Zamonaviy bilimlarni (Axborot va ma'lumotlarni) olish imkonini beradigan barcha empirik va nazariy (tajribaviy, amaliy) faoliyatni amalga oshirish qoidalaridir.

Ijtimoiy tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish – juda ham mashaqqatli jarayonlardandir. Tadqiqotnibirinchi nazariy amaliyotdan boshlash kerak. Buning uchun ijtimoiy tadqiqotga oid tushuncha va aforizmlarni asl muhiyatini va ma'nosini to'la anglab yetish lozim.

Metodologiya - bilishning umumiy yondashuvidir. Ijtimoiy tadqiqotlarning metodi – bu ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash va tahlil etish, ya'ni axborotlar olishning asosiy usullari va yo'l-yo'riqlaridir,. yoki tadqiqotni kuzatish, hujjalami yoki so'rovlami tahlil etish kabilar yordamida tadqiq qilish demakdir. Texnika — u yoki bu metoddan samarali foydalanish uchun maxsus yuqori malakalar orttirish natijasida paydo bo'ladigan yo'l-yo'riqlar yig'indisidir.



Metodilka — qandaydir faoliyat yoki ishni izchillik va o'zafo aloqadoriikda amalga oshirishning metodlari va texnik yo'l-yo'riqlari yig'indisidir. Protsedura<sup>32</sup> — bu bironbir ishni izchillik bilan bajarish, tadqiqotni tashkil etish xatti-harakatlari va yo'Uarining umumiy tizimidir.



<sup>32</sup> Protsedura - [lot. procedere oldinga yurmoq, siljimoq] - qandaydir ishni olib borish yoki muhokama qilishda o'matilgan rasmiy tartib.

Har qanday sotsiologik tadqiqot uning dasturini ishlab chiqishdan boshlanadi. Sotsiologik tadqiqotning mukammal ishlab chiqilgan dasturi uni yuqori darajada va sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Dastur — bu tadqiqot loyihasi, maqsadlari, vazifalari va rejasidir. Tadqiqot dasturi — tadqiqotning nazariy-metodologik asosi (umumiy konsepsiysi) va farazi, shuningdek, ulami tekshirish tartib-qoidalari ifodalangan ilmiy hujjatdir. Sotsiologik tadqiqotlaming ikki turi mavjud: nazariy-amaliy tadqiqotlar sotsial muammolar yechimlarini topishning yangi nazariy yondashuvlarini ishlab chiqishga olib keladi; amaliy sotsiologik tadqiqotlar ochiq namoyon bo'lib turgan sotsial muammolaming amaliy jihatlardan hal etishga qaratiladi. Bu tadqiqotlar natijasi o'laroq amaliyatga joriy etish uchun sotsial loyiha va chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi. Ko'pincha bu tadqiqotlar sotsial-muhandislik tadqiqotlari ham deyiladi.

**Tadqiqotning mavzusi, maqsad va vazifalari.** Har qanday tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi mavzudan boshlanadi. Tadqiqot uchun bitta yoki ikkita mavzu shakllantiriladi. Muammoli vaziyat — obyektning hozirgi holati bilan rivojlanish ehtiyojlari o'rtasidagi qarama-qarshil iklar ifodasidir. Boshqacha aytganda, muammoli vaziyat — bu kishilarning qandaydir natijali amaliy va nazariy xatti-harakatlariga nisbatan ehtiyojlari to'g'risidagi bilimlari bilan ular hali bilmaydigan usullar, vositalar, yo'l-yo'riqlar va ulami amalga oshirishlari o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlardir. Muammoli vaziyatlami hayotiy ziddiyatlar keltirib chiqaradi. Sotsial muammolar bilan ilmiy bilishga oid muammolami bir-biridan farqlash lozim. Sotsial muammo bu sotsial, hayotiy ziddiyatli, uni tugatish uchun maqsadga muvofiq ravishdagi xatti-haraktlami uyushtirish talab etiladigan muammodir. Ilmiy muammo — bu «bilmaslik haqida brlish» holatidir. Ilmiy muammo deganda jamiyatning yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyojlari va ularga doir va mos bo'lgan nazariyalaming yetishmasligi o'rtasidagi ziddiyatlaming mavjudligi tushuniladi. Masalan, jamiyat yangi ta'lim konsepsiyasiga muhtojlik sezmoqda. Ba'zi sotsial muammolaming yechimini topish bir vaqtning . o'zida ham nazariy, ham amaliy harakat qilishni talab etadi. Shuning uchun, odatda, sotsiologik tadqiqotlar majmuaviy ravishda olib borila'di.

**Tadqiqotning obyekti va predmeti.** Sotsiolog muammoni aniqlab, tadqiqot maqsadi va vazifalarini shaldlantirib bo'lganidan keyin obyektga doir ma'lumotlami yig'ishi lozim. Obyekt — bu bilish yoki o'iganish jarayonining maqsadi yo'naltirilgan, ochiq yoki yashirm tarzda sotsial ziddiyatlami saqlab tuigan va muammoli vaziyatlanii tug'diruvchi holatlardir. Tadqiqot obyekti ixtiloflar va ziddiyatlami o'zida saqlab tuigan sotsial jarayon, sotsial voqelik sohasi, qandaydir sotsial munosabatlar, odamlar faoliyati va odamlarning o'zi bo'lishi mumkin. Obyekt quyidagi tavsifga ega bo'lishi lozim: professional mansublik (ishchilar, muhandislar, etnoslar va boshq.) sifatidagi o'lchamlar bo'yicha aniq belgilaiga ega bo'lgan hodisalar; makonlari cheklangan joyiar (mintaqa, shahar, qishloq va boshq.); funksional yo'nalganlik belgilariga ega bo'lgan sohalar (ishlab chiqarish) korxona, siyosiy partiya, maishiy hayot, xizmat ko'rsatish va ko'ngil ochar). Shu bilan birga, sotsiologik tadqiqot obyektlarini tanlashdan tashqari sotsiologik tadqiqot



predmetini aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsiologik tadqiqot predmeti deganda, bevosita o‘rganishga mansub bo‘lgan obyektlar yoki muammolaming xususiyatlari, muhim jihatlari va tomonlari tushuniladi. Odatta sotsiologik tadqiqot predmeti o‘zida muammolaming markaziy masal^larini saqlaydi. Masalan, tadqiqot obyekti sifatida o’smirlar va talabalami olaylik. Bunda tadqiqot predmeti sifatida ulaming qadriyatli yo‘nalganlik jihatlari va ulaming o‘zgarish jarayonlari namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, oliy ta’lim samaradorligini o‘lganishning predmetlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin: -eng iste’dodli yoshlami talabalikka olish uchun qabul qilishni qanday tashkil etish lozim? -har bir talabani shaxsiy kompyuter bilan ta’minlash uchun mablag’ni qayerdan olish mumkin? -ta’lim samarasini oshirish uchun professor-o‘qituvchilar malakalarini qanday va qayerda oshirish mumkin?

**Asosiy tushunchalarni aniqlashtirish va sharhlash.** Sotsiologik tadqiqot o‘tkazishda zaruriy tushunchalarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda eng muhimi asosiy tushunchalarni sharhlash hisoblanadi. asosiy tushuncha ko‘pincha o‘zida boshqa, ya’ni, ayrim tushunchalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ular aniq ifodalanib turadi, lekin, ular umumlashtirishning pastroq darajasida turadi. Asosiy tushunchalarni sharhlash ulami tashkil etuvchi unsurlami bir-birlaridan ajratishni, ya’ni ulaming ichida ko‘proq zarur bo‘ladiganlariga muhimroq ahamiyat berish taqozo etiladi. Masalan, «sotsial faollik» umumiyoq tushuncha hisoblanadi. U o‘z ichiga «ijtimoiy-siyosiy faollik», «mehnat faolligi», «bilish faolligi» kabi tushunchalarni oladi. Amaliy sotsiologiya empirik sharhlash, ya’ni tushunchalaming empirik ahamiyatni izlash va ishga solish uchun saralash (operatsional) kabi sharhlashlami bir-biridan farqlaydi. Saralash va ishga solish bu bir xil ma’noli iboralaiga, shuningdek asosiy tushunchalarni sharhlashni unsurlaiga nisbatan ham yana davom ettirish va yanada aniqroq tafsilotlar olishga erishish demakdir.

**Tadqiqotning asosiy (strategik) rejasi.** Sotsiologik tadqiqotning muvafaqqiyati nafaqat dastuming metodologik qismini ishlab chiqish, balki strategik reja va uni joriy etishga ham uzviy ravishda bog’liqdir. Strategik rejaning uchta turi mavjud: 1.)qidirish (ta’riflashtirish, izlashga oid); 2)tahliliy (tavsifiy); 3)tajribaviy. Qidirish rejasi tadqiqot obyekti va \* predmeti to‘g’risida ravshan tasawurlar yetishmagan holatlarda, sotsiolog hech qanday farazni ilgari sura olmagan paytlarda qo’llaniladi. Bu holatda rejaning maqsadi — muammolami aniqlash va farazni shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Qidiruv rejasi tadqiqotni uch bosqichda o‘tkazishni taqozo etadi. Tahliliy (tavsifiy) rejadan tadqiq etiladigan muammolarga oid bilimlaming tadqiqot obyektini ajratib olish hamda tavsifiy farazni shakllantirish (ya’ni, o’iganiiadigan obyektning tasniflash tafsiflari va strukturaviy-fimksional aloqalarga doir faraz) imkonim beigan paytda foydalilanadi. Rejaning maqsadi — tafsiflovchi farazni tekshirishdir

**So‘rov sotsiologik axborotlar olisbning metodi** sifatida. So‘rov metodi to‘g’ridan-to‘g’ri kuzatuvga erishib bo‘lmaydigan va tahlil etilyotgan hujjatlarda to‘liq aks etmagan hodisalar va jarayonlar to‘g’risida axborotlar olishga zarurat tug‘ilganida qo’llaniladi.



So'rov — bu intervyyu oluvchi (intervyuer) yoki anketa (so'rovnama) savollariga javoblar berish yo'li bilan bevosita yoki bilvosita dastlabki axborotlami yig'ish metodidir. So'rovlari turli asoslarga binoan tasniflashtiriladi. Dastawal anketa so'rovlari va intervyyu tushunchalarini bilishga ehtiyojlar paydo bo'ladi. Sotsiolog va respondent o'zaro aloqalari tavsifiga binoan so'rovlari tadqiqotchining respondent bilan bevosita aloqasi amalga oshiriladiganjarayondan iborat yuzma-yuz (shaxslararo) va o'zaro aloqalar yuz bermaydigan sirtqi turlaiga bo'linadi. Yuzma-yuz so'rovga intervyyu, sirtqi so'rovga anketa so'rovlari taalluqlidir. Rasmiylashish darajalari bo'yicha so'rovlari oldindan tayyorlangan reja bo'yicha amalga oshiriladigan standartlashgan va standartleshmagan, ya'ni erkin turlaiga bo'linadi. O'tkazilish joylariga qarab so'rovlari yashash joyida va ish joyida o'tkazffishi bilan ham birbiridan farqlanadi. Bosh (asosiy) yig'indilami qamrab olishi darjasи bo'yicha so'rovlari yaxlit (yalpi) va tan lab oiinadigan xillaiga bo'linadi. Yaxlit turida kuzatish birliklarining barchasini tashkil etadigan yig'indiga teng bo'lган miqdorda so'rov qilinadi. Tanlab oiinadigan turida o'lganiladigan barcha asosiy yig'indilaming ma'lum bir qismi so'rov qilinadi. So'rovlami faktoriy o'tkazish bo'yicha bir martalik va k o 'p martalik so'rovlarga bo'linadi. So'rovlaming o'ziga xos turi ekspert so'rovi hisoblanib, unda tadqiq ettiadigan sohalar mutaxassislardan so'raladi. So'rov metodining afzalligi. So'rov — odamlarning subyektiv olami, qiziqishlari, faoliyatlar motivlari, fikrlari, qadriyatlari mo'ljallari to'g'risida axborotlar olishning hech bir tengi yo'q turi hisoblanadi. So'rov tad

qiqotchi uchun zarur bo'lган har qanday vaziyatni modeUashtira olishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Bu odamlarning xulqlari asosida yotadigan — ulaming hayotiy umidlari, mehnat jamoasidagi munosabatlar strukturasi, oilaviy hayoti kabiliaiga ta'sir etadi, shuningdek ulaming nimalami afzal deb bilishi, motivlari va manfaatlarining barqarorligini aniqlash uchun zarurdir. So'rov metodi yordamida nisbatan qisqa vaqt ichida ko'plab respondentlami so'rovdan o'tkazish, katta hajmdagi axborotlami olisfr-» imkoniyatlariga ega bo'lish mumkin.

**Intervyu olish metodi.** Intervyu — muayyan reja bo'yicha intervyyu oluvchining respondent bilan bevosita suhbat qurishidir. Bunda javoblar intervyyu oluvchi, yoki uning assistenti, yoki diktofon yoki video kabilar vositasida yoziladi. Intervyuga respondent va intervyyu oluvchi o'rtasidagi o'zaro sotsial-psixologik aloqalaming muayyan shakli sifatida qarash mumkin. Bu o'zaro aloqalaming xususiyatlari ular o'rtasidagi rollaming qat'iy talabchanlik bilan taqsimlanishidan iboratdir

Xulosa qilib shuni aytamanki, jamiyatdagи bo'layotgan turli jarayonlar bevosita bizni hayotimizga asosiy ta'sirini o'tkazadi va hayotimizni qaysidir tarafga o'zgartishi mungkin. Shuning uchun ham biz jamiyatdagи bo'layotga ijtimoiy hodisalar va vaziyatlarga befarq turmasdan u yerda faol bo'lishimiz kerak zero hozirgi davrda siz jamiyatga dushmanlik qilishingiz uchun urushingiz shart emas shunchaki befarq bo'sangiz bo'ldi barchasi jamiyat uchun yomon tarafga o'zgara veradi

### Foydalanilgan adabiyotlar



1. MUQIMJON QIRG 'IZBOYEV SOTSILOGIYA
2. [https://www.researchgate.net/publication/349346692\\_JAMIYAT\\_TARAQQIYOTIDA\\_AXBORIY\\_MADANIYAT\\_AXBOROT\\_RESURSLARINING\\_O'RNI](https://www.researchgate.net/publication/349346692_JAMIYAT_TARAQQIYOTIDA_AXBORIY_MADANIYAT_AXBOROT_RESURSLARINING_O'RNI)
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsiologiya>